

INTERFAOL METODLAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО И ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS' CRITICAL AND CREATIVE THINKING THROUGH INTERACTIVE METHODS

Ukibaeva Sanimxan Toymagambetovna

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

“Pedagogika va tillar” kafedrası, Assistent o'qituvchisi

sanimxanukiboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda interfaol ta'limning mazmuni, uning o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqil fikrlashiga ta'siri hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llashning metodik jihatlari tahlil qilingan. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Muammoli vaziyat”, “Case-study”, “Sinkveyn” kabi metodlarning o'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash, dalillash, muammoni hal etish va yangi g'oyalar yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, interfaol metodlarni tanlashda dars maqsadi, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ta'lim mazmunini hisobga olish zarurligi asoslangan. Tadqiqot natijalari interfaol metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun samarali pedagogik sharoit yaratishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash, o'quvchi faolligi, pedagogik texnologiya, muammoli ta'lim, hamkorlik, innovatsion ta'lim.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности использования интерактивных методов в развитии критического и творческого мышления учащихся начальных классов. Раскрывается содержание интерактивного обучения, анализируется его влияние на познавательную активность и самостоятельность учащихся, а также рассматриваются методические особенности применения интерактивных методов в начальном образовании. Особое внимание уделено таким методам, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Диаграмма Венна», «Проблемная ситуация», «Case-study» и «Синквейн», которые создают условия для развития у учащихся навыков

анализа, сравнения, аргументации, поиска решений и выдвижения новых идей. Обоснована необходимость выбора интерактивных методов с учетом целей урока, содержания учебного материала и возрастных особенностей учащихся. Результаты исследования показывают, что систематическое и целенаправленное применение интерактивных методов способствует созданию эффективной педагогической среды для развития критического и творческого мышления учащихся начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, интерактивные методы, критическое мышление, творческое мышление, самостоятельное мышление, познавательная активность, педагогические технологии, проблемное обучение, сотрудничество, инновационное образование.

Abstract. This article examines the pedagogical potential of interactive methods for developing critical and creative thinking among primary school pupils. The study focuses on the essence of interactive learning, its influence on pupils' cognitive engagement and independent thinking, and methodological aspects of applying interactive approaches in primary education. Particular attention is paid to such methods as brainstorming, clustering, Venn diagrams, problem-based situations, case study, and the cinquain method. These approaches provide opportunities for pupils to analyze information, compare ideas, justify their opinions, solve problems, and generate original solutions. The article also emphasizes the importance of selecting interactive methods according to lesson objectives, learning content, and pupils' age-related characteristics. The findings indicate that systematic and purposeful use of interactive methods can create an effective learning environment for developing critical and creative thinking skills in primary school pupils. Such approaches also contribute to learner engagement, collaboration, communication, and independent decision-making.

Keywords: primary education, interactive methods, critical thinking, creative thinking, independent thinking, learner engagement, pedagogical technologies, problem-based learning, collaboration, innovative education.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o'z nuqtayi nazarini asoslash, yangi g'oyalarni ilgari surish va turli vaziyatlarda ijodiy yechimlar topishga o'rgatishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish keyingi ta'lim bosqichlari uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli boshlang'ich sinf darslarini o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqil fikrlashini ta'minlaydigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlashdir. An'anaviy

darslarda o'qituvchi asosiy axborot manbai sifatida namoyon bo'lsa, interfaol ta'limda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchilarning o'zaro fikr almashishi, savol-javob, munozara, muammoli vaziyatlarni hal etish hamda jamoaviy faoliyatga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilimlarini mustahkamlash, balki ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Tanqidiy fikrlash o'quvchining ma'lumotni shunchaki qabul qilishi emas, balki uni tahlil qilishi, taqqoslashi, sabab va oqibatlarni aniqlashi, dalillarni baholashi hamda asoslangan xulosaga kelishi bilan tavsiflanadi. Ijodiy fikrlash esa mavjud bilim va tajribalar asosida yangi g'oyalarni yaratish, muammoga noodatiy yondashish, turli variantlarni ilgari surish va original yechimlarni topish qobiliyatini ifodalaydi [3; 5].

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda mazkur ko'nikmalarni rivojlantirishda ularning yosh va psixologik xususiyatlariga mos interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "B-B-B", "Venn diagrammasi", "Muammoli vaziyat", "Case-study", "Sinkveyn", "Rolli o'yin", "Bahs-munozara" kabi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi. Mazkur metodlar orqali o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalarning qarashlarini tinglash, fikrlarni taqqoslash, dalillar asosida xulosa chiqarish va muammoga bir nechta nuqtayi nazardan yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimida ta'lim sifatiga alohida e'tibor berilmoqda. O'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish va ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bir qancha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisidan dars mazmunini o'quvchilarning faol fikrlash faoliyati bilan uyg'unlashtirish, interfaol metodlarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash va ulardan samarali foydalanish kompetensiyasi talab etiladi. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan foydalanishning o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ta'siri, samarali metodlarni tanlash mezonlari va ularni dars jarayonida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish dolzarb masalalarning biri hisoblanadi. Mazkur muammo xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida turli nazariy va metodik jihatlaridan o'rganilgan. Tanqidiy fikrlash nazariyasining rivojlanishida amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyui qarashlari muhim o'rin tutadi [1]. U ta'lim jarayonida o'quvchining faol fikrlashi, muammoni anglash, kuzatish, taxmin ilgari surish va xulosaga kelish jarayonlariga katta ahamiyat bergan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalalari B.Blumning ta'lim maqsadlari taksonomiyasi bilan ham chambarchas bog'liq. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv jarayonlar tizimida

bilimni eslab qolishdan tashqari tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yangi mahsulot yaratish kabi yuqori darajadagi fikrlash jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yondashuv boshlang'ich ta'limda topshiriqlarni oddiy reproduktiv faoliyatdan murakkabroq fikrlash faoliyatiga bosqichma-bosqich olib chiqish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. R.Ennis, R.Paul va L.Elder kabi tadqiqotchilar tanqidiy fikrlashni mantiqiy fikrlash, dalillarni tahlil qilish, fikrlarni baholash va asoslangan qaror qabul qilish bilan bog'laydilar [2; 4].

Ijodiy fikrlash masalasida J.Gilfordning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim ijodiy fikrlashni divergent fikrlash bilan bog'lab, muammoga bir nechta yechim topish, ko'plab g'oyalarni ilgari surish, fikrning moslashuvchanligi va haqiqiyliги kabi jihatlarni ajratib ko'rsatgan. E.P.Torrance esa ijodkorlikni rivojlantirish va uni baholash masalalarini tadqiq etib, ijodiy fikrlashning ravonlik, moslashuvchanlik, haqiqat va g'oyalarni rivojlantirish kabi tarkibiy jihatlarga e'tibor qaratgan.

Interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari ham zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan. Interfaol yondashuvning asosiy xususiyati o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qarash, o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro hamkorligini ta'minlashdan iborat. Bunda ta'lim jarayoni tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra, bilimlarni mustaqil izlash, muhokama qilish va amaliy faoliyat orqali egallashga yo'naltiriladi.

Milliy pedagogik adabiyotlarida ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ta'lim samaradorligini oshirish, pedagogik texnologiyalardan foydalanish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, N.N.Azizxo'jayeva, J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov, B.X.Xodjayev kabi olimlarning ilmiy-metodik ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va o'quvchi faolligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilgan. Mazkur jihat boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslarini yanada chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosini boshlang'ich ta'limda o'quvchining faol bilish faoliyatini ta'minlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv va interfaol ta'lim tamoyillari tashkil etadi. Interfaol metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlashiga ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan metodik yondashuvdan foydalanildi. Bu orqali interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash va ijodiy fikrlash tushunchalarining mazmun-mohiyati aniqlashtirildi. Interfaol metodlarning samaradorligini aniqlash uchun "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Insert", "Muammoli vaziyat", "Sinkveyn", "Rolli o'yin" hamda "Case-study" kabi metodlardan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Mazkur metodlar o'quvchilarning turli darajadagi fikrlash faoliyatini faollashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, ularni darsning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir.

Tanqidiy fikrlashni aniqlashda o'quvchilarning muammoni tahlil qilishi, savolga dalil asosida javob berishi, turli fikrlarni taqqoslashi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi va xulosa chiqarishi kabi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratildi. Ijodiy fikrlashni baholashda esa o'quvchining yangi g'oya taklif qilishi, muammoga noodatiy yechim topishi, bir masalaga bir nechta variant taklif qilishi, fikrini rivojlantirishi va haqiqiy yondashuv ko'rsatishi asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Natijalar asosida interfaol metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlanadi. Shunday qilib, tanlangan metodologik yondashuv interfaol metodlarni faqat darsni qiziqarli tashkil etish vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatida tadqiq etish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur metodlar o'quvchining darsdagi faolligini oshirish bilan bir qatorda, uning fikrlash jarayonlarini bosqichma-bosqich murakkablashtirishga xizmat qiladi. An'anaviy ta'limda o'quvchi ko'pincha tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, interfaol ta'limda u savol qo'yish, fikr bildirish, muammoni tahlil qilish, dalillar keltirish va xulosa chiqarish jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, interfaol metodlarning samaradorligi, avvalo, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va dars maqsadiga mos tanlanishi bilan belgilanadi. Masalan, "Aqliy hujum" metodi o'quvchilarda qisqa vaqt ichida ko'plab g'oyalarni ilgari surish imkoniyatini yaratib, ijodiy fikrlashning ravonligi va moslashuvchanligini rivojlantirishga yordam beradi. "Klaster" metodi esa o'quvchilarga tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, mavjud bilimlarni tizimlashtirish va yangi fikrlarni ular bilan bog'lash imkonini beradi. "Venn diagrammasi" orqali ikki yoki undan ortiq tushuncha, predmet yoki hodisaning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash o'quvchilarning taqqoslash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Muammoli vaziyat" metodidan foydalanish o'quvchini tayyor javobni izlashdan ko'ra, muammoning sababini aniqlash va uni hal etishning turli variantlarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. "Case-study" metodida o'quvchilarga muayyan vaziyat yoki muammo taqdim etilib, undan kelib chiqadigan savollar ustida individual yoki guruhli ishlash tashkil etiladi. Tadqiqot metodologiyasida belgilangan mezonlar asosida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin:

Fikrlash turi	Asosiy ko'rsatkichlar	Interfaol metodlar
<i>Tanqidiy fikrlash</i>	Tahlil qilish, taqqoslash, dalillash, xulosa chiqarish	Venn diagrammasi, muammoli vaziyat, case-study
<i>Ijodiy fikrlash</i>	Yangi g'oya yaratish, originallik,	Aqliy hujum, klister,

	moslashuvchanlik, bir nechta yechim taklif qilish	sinkveyn, ro'lli o'yinlar
<i>Kommunikativ fikrlash</i>	O'z fikrini ifodalash, savol berish, boshqalarni tinglash	Bahs-munozara, juftlikda ishlash, guruhli ish
<i>Refleksiv fikrlash</i>	O'z faoliyatini baholash, xatolarni anglash, xulosa chiqarish	BBB, insert, refleksiya savollari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanishda metodning nomi emas, balki undan qanday pedagogik maqsadda foydalanilayotgani muhim hisoblanadi. Masalan, "Aqliy hujum" metodidan faqat savollarga tezkor javob olish uchun foydalanish uning imkoniyatlarini cheklaydi. Aksincha, o'quvchilarga muammoli savol berish, turli g'oyalarni ilgari surishga imkon yaratish, takliflarni guruhlash va ularni asoslashga yo'naltirish mazkur metodning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini oshiradi.

Tadqiqotning nazariy va metodik tahlili asosida quyidagi natijalarga kelindi:

1. Interfaol metodlar o'quvchilarning darsdagi bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchi o'z fikrini mustaqil shakllantirish va uni boshqalarga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli va tahliliy topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlar o'quvchini ma'lumotni shunchaki eslab qolishdan ko'ra, uni tahlil qilish, taqqoslash va baholashga yo'naltiradi.

2. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ochiq topshiriqlar samarali vosita hisoblanadi. Bir nechta javob yoki yechimga ega bo'lgan topshiriqlar o'quvchilarning yangi g'oyalar yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Guruhli va juftlikdagi interfaol faoliyat kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. O'quvchilar o'z fikrlarini ifodalash bilan birga, boshqa o'quvchilarning qarashlarini tinglash va baholashni o'rganadilar.

3. Interfaol metodlarning samaradorligi o'qituvchining metodik mahoratiga bog'liq. Metod dars maqsadiga, o'quv material mazmuniga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tanlanishi zarur. Interfaol metodlarni tizimli qo'llash yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Bunda o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Chunki boshlang'ich sinfda shakllangan fikrlash, tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z nuqtayi nazarini ifodalash ko'nikmalari o'quvchining keyingi ta'lim faoliyati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, interfaol metodlarning ta'limiy samarasi ularning shunchaki qo'llanilishiga

emas, balki o'qituvchi tomonidan metodning aniq pedagogik maqsad asosida tanlanishi va darsning umumiy mazmuni bilan uyg'unlashtirilishiga bog'liq. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi interfaol metodlarni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, o'quv material hamda kutilayotgan natijalardan kelib chiqib tanlashi lozim. Interfaol metodlarni bosqichma-bosqich va tizimli qo'llash o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni ko'ra bilish, turli fikrlarni taqqoslash, o'z qarashlarini asoslash, yangi g'oyalar ilgari surish va hamkorlikda qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Shu asosda boshlang'ich ta'lim amaliyotida interfaol metodlardan foydalanishni yanada takomillashtirish, o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish, interfaol topshiriqlar bankini yaratish va ularning samaradorligini amaliy tajribalar asosida muntazam o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ta'lim jarayonining mazmunini boyitish bilan birga, o'quvchilarning XXI asr uchun zarur bo'lgan mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. How We Think. - Boston: D.C. Heath & Co., 1933.
2. Ennis R.H. Critical Thinking. - Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 1996.
3. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. - 1950. - Vol. 5, No. 9. - P. 444-454.
4. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. - Upper Saddle River, NJ: Pearson Education, 2001.
5. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. - Lexington, MA: Personnel Press, 1974.